

1. Quyidagilarni **TO'G'RI** moslashtiring.  
 (Asos: Fuqarolik kodeksi 87-90-moddalar)

- Ashyolar tasnifi:
- 1) *Bo'linadigan ashyolar;*
  - 2) *Iste'mol qilinmaydigan ashyolar;*
  - 3) *turga xos alomatlari bilan belgilangan ashyolar;*
  - 4) *Asosiy ashyolar.*
    - a) *Foydalanish tufayli vujudga keladigan munosabatlarning mohiyati bilan boshqa ashyyoga bog'liq mustaqil ashyolar;*
    - b) *bo'lish natijasida har qaysi qismi butunning xossalarni o'zida saqlab qo'ladigan va shu bilan birga o'zining xo'jalik ahamiyatini yo'qotmaydigan ashyolar;*
    - c) *qayta-qayta foydalanishga mo'ljallangan, bunda o'zining dastlabki holatini uzoq vaqt davomida saqlab qoladigan hamda asta-sekin yemirilib boradigan ashyolar;*
    - d) *bir turdag'i hamma ashyolarga xos alomatlarga ega bo'lgan hamda soni, og'irligi, o'lchovi va shu kabilar bilan belgilanadigan ashyolar.*
- A) a-1, b-3, c-2, d-4

- B) a-4, b-1, c-2, d-3  
 C) a-3, b-2, c-4, d-1  
 D) a-2, b-4, c-1, d-1

2. A ismli shaxs o'z boshlig'idan vazifa oldi. A bu vazifani noqonuniy ekanligini biladi, lekin agar bajarmasa ishdan ketishi aniq. A noqonuniy bo'lsa ham ushbu vazifani bajarishga qaror qildi. Diqqat savol A ning harakati jinoyatni istisno qiluvchi holat deb topiladimi?  
 (Asos: Jinoyat kodeksi 40-modda 29. 01. 2025 holatiga ko'ra)

- A) *ushbu vaziyatda oxirgi zarurat deb topiladi*  
 B) *yuqoridagi vaziyatda jinoyatni istisno qiluvchi holat mavjud emas. A javobgarlikka tortiladi*  
 C) *jinoyatni istisno qiluvchi holat mavjud. Ya'ni A buyruqni bajaryapti*  
 D) *A va C javoblar to'g'ri*

3. Abu Ali ibn Sinoga tegishli **bo'lмаган** gapni aniqlang.

A) *Bekorchilik va maishatparastlik nafaqat odobsizlikni tug'diradi, ular bilan bir vaqtida bemorlikka ham sabab bo'ladi*

B) Agar sen inson bo'lsang, xalq ehtiyoji to'g'risida qayg'urmaydiganni inson deb atamagin

C) Aql tarozisida tortib ko'rilmagan har qanday bilim asossizdir

D) Yolg'izlik halokatga olib keladi. Inson o'z shaxsiy talablari jihatidan boshqalardan ajralgan holda yashay olmaydi

#### 4. Quyidagilarni TO'G'RI moslashtiring.

I. Prezidentlik respublikasi

II. Parlamentar Respublika

III. Parlamentar monarxiya

a-Norvegiya

b-Braziliya

c-Hindiston

d-Meksika

e-Gretsiya

f-Daniya

A) I-b, d; II-c, e; III-a, f

B) I-a, b; II-c, d; III-e, f

C) I-c, e; II-b, f, III-a, d

D) I-b, d; II-c, f; III-a, e

#### 5. Quyidagilardan NOTO'G'RISINI aniqlang.

(Asos: Jinoyat kodeksi 43-moddasi. 29. 01. 2025 holatiga ko'ra)

Jinoyat sodir etishda aybli deb topilgan shaxslarga nisbatdan quyidagi asosiy jazolar qo'llanilishi mumkin:

1) jarima, muayyan huquqdan mahrum qilish;

2) harbiy yoki maxsus unvondan mahrum qilish

3) xizmat bo'yicha cheklash, ozodlikdan cheklash

4) qamoq

A) 1, 3                  B) 2, 4

C) 2, 3                  D) 1, 4

6. Xalqaro Oila kunini nishonlash haqidagi qaror qabul qilinganligining maqsadi nimaga qaratilgan?

A) oila mustahkam bo`lishiga

B) davlatlarning birlashishiga

C) oilada farzandalarning ko`payishiga

D) bayramlarning sonini yanada oshirishga

7. Quyidagilardan fashistik tartibotga tegishli bo'lgan ma'lumotlarni aniqlang.

1) bu tartibotda hukmronlik qilgan har qanday muxolifot yo'q qilinadi

2) yagona partianing hukmronligi o'rnatiladi

- 3) *biron-bir irqning hukmronligi e'lon qilinadi*  
 4) *bu tartibotda o'zgacha fikrlarga qarshi kurashiladi*  
 5) *boshqa hududlarni bosib olishga harakat kuchayadi*  
 6) *saylovchilarning saylovda muqobil deputatlarni saylash imkoniyatlari bo'lmaydi*  
 A) 1, 3, 5  
 B) 2, 4, 6  
 C) 1, 3, 4  
 D) 2, 4, 5

8. Quyidagilarni tegishliligiga qarab TO'G'RI moslashtiring.

***Huquqiy davlatning belgilari:***

- 1) *Hokimiyatning qonuniyligi*  
 2) *Demokratiyaning rivojlanganligi va takomillashganligi*  
 3) *Inson huquq va erkinliklarining ta'minlanishi va himoyalanishi*

a) hokimiyat demokratik saylovlari yo'li bilan shakllanadi. Davlat hokimiyati mamlakatning ichkarisida va xalqaro miqyosda tan olinadi  
 b) inson, uning hayoti, sha'ni, qadr-qimmati, huquq va

- erkinliklari manfaatlari oliy qadriyat hisoblanadi  
 c) xalq davlat boshqaruvida qatnashadi, siyosiy huquqlar va erkinliklar kafolatlanadi  
 A) 1a, 2b, 3c  
 B) 1b, 2c, 3a  
 C) 1c, 2b, 3a  
 D) 1a, 2c, 3b

9. Qavslar ichiga mos so'zlarni qo'ying.

"Har bir insonga ikkita katta sovg'a beriladi: (a) va (b). Ularni qanday maqsadda ishlatish esa o'z qo'lingizda"!

*Robert Kiyosaki*

- A) *a-bilim, b-ko'nikma*  
 B) *a-miya, b- vaqt*  
 C) *a-imkoniyat, b-zakovat*  
 D) *a- vaqt, b-imkoniyat*

10. Quyidagilardan O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik to'g'risidagi qonunning 25-moddasiga muvofiq O'zbekiston Respublikasi fuqaroligini yo'qotish asoslar TO'G'RI berilgan qatorlarni toping.

1) agar O'zbekiston Respublikasi fuqaroligiga qabul qilish bila turib yolg'on

*ma'lumotlar yoki soxta hujjatlarni taqdim etish natijasida amalga oshirilgan bo'lsa*

*2) agar shaxs ixtiyoriy ravishda chet davlatning fuqaroligidan voz kechgan bo'lsa*

*3) agar xorijda doimiy yashovchi shaxs yetti yil mobaynida uzrli sabablersiz doimiy konsullik hisobiga turmagan bo'lsa*

*4) agar shaxs chet davlatning fuqaroligini tug'ilganlik bo'yicha yoxud chet davlat fuqarosi bo'lgan otasining yoki onasining fuqaroligi asosida, voyaga yetmagan yoshida olgan bo'lsa va o'n sakkiz yoshga to'lguniga qadar chet davlat fuqaroligidan chiqishni rasmiylashtirmagan bo'lsa*

- A) 1,3              B) 2,4  
C) 1,4              D) 2,3

**11. Quyidagilardan yakuniy hukmni aniqlang.**

(TO'G'RI / NOTO'G'RI)

*I) Mamlakatimizda 1998-yil "Oila yili deb e'lon qilingan.  
II) 15-mart xalqaro oila kuni sifatida nishonlanadi*

*III) Mamlakatimizda 2009-yil "Mustahkam oila yili" deb e'lon qilingan*

*IV) Oila sohasidagi huquqiy munosabatlarning asosiy manbayi O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi hisoblanadi.*

- A) I-noto'g'ri, II-to'g'ri, III-noto'g'ri, IV-to'g'ri  
B) I-to'g'ri, II-to'g'ri, III-noto'g'ri, IV-to'g'ri  
C) I-to'g'ri, II-noto'g'ri, III-noto'g'ri, IV-to'g'ri  
D) I-noto'g'ri, II-to'g'ri, III-to'g'ri, IV-noto'g'ri

**12. Jinoyat sodir etishda aybdor deb topilgan shaxs qonunda belgilangan huquqlardan foydalanishi hamda majburiyatlarni bajarishi Jinoyat kodeksining qaysi prinsipiga to'g'ri keladi?**  
(Asos: Jinoyat kodeksi 4-modda. 29. 01. 2024 holatiga ko'ra)

- A) Fuqarolarning qonun oldida tengligi  
B) Demokratizm prinsipi  
C) Insonparvarlik prinsipi  
D) Qonuniylik prinsipi

13. Quyidagi ma'lumotlarni bir-biriga TO'G'RI moslashtiring.

I. Afv

II. Amnitsiya

- a) muayyan shaxslar uchun ularning shaxsini tavsiflovchi ma'lumotlarni inobatga olib jazodan ozod qilish hisoblanadi
- b) faqat sud hukmi bilan jazo tayinlangan mahkumlarga e'lon qilinadi
- c) prezident taqdimnomasiga binoan Oli Majlisning Senati tomonidan e'lon qilniadi
- d) aniq shaxslarga emas, umumiylarga toifalarga e'lon qilinadi.

e) huquqiy oqibatlari kengroq bo'jadi

f) huquqiy oqibatlari kamroq bo'jadi

A) a-I, b-II, c-I, d-I, e-II, f-I

B) a-I, b-I, c-II, d-II, e-II, f-I

C) a-II, b-II, c-II, d-II, e-I, f-II

D) a-II, b-I, c-I, d-I, e-I, f-II

14. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 25-moddasiga ko'ra: *Yashash huquqi har bir insонning .....*

A) ajralmas huquqidir

B) mutlaq huquqidir

- C) uzviy huquqidir  
D) daxlsiz huquqidir

15. Ehtiyyot choralari qo'llanilishining maqsad va asoslari nimalardan iborat (Asos: Jinoyat protsessual kodeksi 236-modda. 29. 01. 2025 holatiga ko'ra)

- 1) sudlanuvchini surishtiruvdan, dastlabki tergovdan va suddan bo'yin tovlanishini oldini olish
  - 2) uning bundan buyongi jinoiy faoliyatini oldini olish
  - 3) uning qonunda belgilangan huquq va erkinliklarini vaqtinchalik cheklash
  - 4) uning ish bo'yicha haqiqatni aniqlashga halal beradigan urinishlariga yo'l qo'ymaslik
  - 5) hukmni ijro etilishini ta'minlash
- A) 1, 2, 3, 4  
B) 2, 4, 5  
C) 1, 2, 4, 5  
D) 1, 2, 3, 4, 5

16. Boshqalarga qaraganda oldinroq sodir bo'lgan voqeani aniqlang.

A) O'zbekiston Bola huquqlari to'g'risidagi Konvensiyani ratifikatsiya qildi

- B) MDH nizomi qabul qilindi
- C) BMT Toshkentda o'z vakolatxonasini ochdi
- D) O'zbekiston Respublikasi Jahon intelektual mulk tashkilotiga a'zo bo'ldi

17. Sudning nikohdan ajratish asoslari to'g'ri ko'rsatilgan qatorni aniqlang.  
 (Asos: Oila kodeksi 41-modda  
 29. 01. 2025 holatiga ko'ra)

- A) Agar sud er va xotinning bundan buyon birgalikda yashashining va oilaning saqlab qolishga imkoniyat yo'q deb topsa, ularni nikohdan ajratadi*
- B) Agar nikohdan ajrashish haqida sudga da'vo ariza bergen er va xotin o'rtaida voyaga yetmagan farzandlar bo'lgan taqdirda nikohdan ajratiladi*
- C) Sud ariza berilgandan so'ng barcha masalalarni aniqlab, ularga oydinlik kiritgandan so'ng ularni nikohdan ajratadi*
- D) Alimen to'lash bo'yicha majburiyatlar kelishib olinganidan so'ng sud nikohdan ajratadi*

- 18. Vestfaliya sulhi imzolanganidan keyin davlatlar qanday huquqlarni tan oldilar?  
 A) barcha fuqarolarning teng huquqlilagini  
 B) bir-birlarining suveren huquqlarini  
 C) kichik davlatlar katta davlatlarga bo'ysunishini  
 D) kuch ishlatmaslik va kuch bilan tahdid qilmaslik kelishuvini

*19." Agar oilaning baxtini boylik belgilaganda edi, bironta boy xonadonda oilaviy janjal ko'tarilmas edi."*

- Ushbu gap muallifini aniqlang
- A) Teador Ruzvelt
  - B) Sh.Mirziyayev
  - C) Abu Ibn Sino
  - D) Tohir Malik

20. Quyidagilardan yakuniy hukmni aniqlang. (TO'G'RI / NOTO'G'RI)

Axloq va huquq o'rtaсидаги асосиylар quyidagilar:

- 1) huquq davlat tomonidan belgilangan bo'ladi, axloq esa davlatning yordamisiz o'z-o'zidan shakllanadi*
- 2) axloq hujjatlarda aniq ko'rinishga ega*

3) *axloq normalari ijtimoiy munosabatlarning kengroq doirasini va tartibga soladi*  
 4) *huquq normalari, zarur hollarda, davlatning majburlov kuchi orqali, axloq normalari esa jamoatchilik fikri orqali qaror topadi*

A) 1 noto'g'ri, 2 to'g'ri, 3 noto'g'ri, 4 to'g'ri  
 B) 1 to'g'ri, 2 noto'g'ri, 3 to'g'ri, 4 to'g'ri  
 C) 1 to'g'ri, 2 noto'g'ri, 3 noto'g'ri, 4 to'g'ri  
 D) 1 to'g'ri, 2 to'g'ri, 3 noto'g'ri, 4 to'g'ri

21. Bilasiz BMT Bosh Assambleyasida sessiyalar bo'lib o'tgan. Quyidagi ma'lumotlarni sessiyalarga oid bo'lgan ma'lumotlar bilan to'g'ri moslashtiring.  
 (Manba 10-sinf davlat va huquq asoslari)

- 1) *Shavkat Mirziyayev ilk bor Bosh Assambleya sessiyasida nutq so'zladи*
- 2) *2021-yilning 21-sentabr sanasida bo'lib o'tgan*
- 3) *O'zbekiston Respublikasi "Bola huquqlari kafolatlari to'g'risida" gi qonunni ratifikatsiya qildi.*

- a) 72-sessiya
- b) 44-sessiya
- c) 76-sessiya
- A) a-1, b-2, c-3
- B) a-1, b-3, c-2
- C) a-3, b-1, c-1
- D) to'gri javob yo'q

22. Quyidagilardan **munitsipal multka** taaluqli qatorni aniqlang.

(Asos: Fuqarolik kodeksi 214-215-moddalar. 29. 01. 2025 holatiga ko'ra)

- A) davlat ahamiyatiga ega bo'lgan moddiy madaniy meros obyektlari
- B) oltin zaxirasi
- C) xalq ta'limi, madaniyat, sog'liqni saqlash muassalari
- D) davlat hokimiyati va boshqaruvi Respublika organlarining mol-mulki

23. Huquq normasining asosiy vazifasi nima?

- A) fuqarolarning qonunlarga hurmat ruhida tarbiyalash
- B) ijtimoiy munosabatlarni tartibga solish
- C) huquqiy munosabatlarni tartibga solish
- D) insonlarda huquqiy ong va huquqiy madaniyat

*shakllanishi uchun sharoit  
yaratish*

24. Nuqtalar o`rnini to`ldiring.  
.... – *harom bilan halolning  
chegarasini belgilaydigan  
vijdon qozisi.*

- A) vijdon
- B) ishq
- C) qanoat
- D) sabr

25. Fuqarolar o`rtasidagi qarz shartnomasi, agar bu qarzning summasi BHM ning necha baravaridan ortiq bo`lsa, oddiy yozma shaklda tuziladi?

(Asos: Fuqarolik kodeksi 733-modda 29. 01. 2025 holatiga ko`ra)

- A) o'n baravari
- B) yigirma baravari
- C) ellik baravari baravari
- D) o'ttiz baravari

26. Bolaning nomulkiy huquqlari NOTO'G'RI ko`rsatilgan qatorni aniqlang.

- A) bobo, buvisi bilan ko'rishish
- B) o'z familiyasiga ega bo'lishi
- C) o'z ota-onasini bilishi
- D) meros huquqidan foydalanishi

27. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining to'qqizinchi bobi nimaga bag'ishlangan?

- A) Siyosiy huquqlar
- B) Iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy va ekalogik huquqlar.
- C) Fuqarolarning burchlari
- D) Iqtisodiy, ijtimoiy va ekalogik huquqlar

28. Sanjar bilan Sanobar sinfdosh. Ular 2025-yilning yilning avgust oyida 18 yoshga to'lishadi. Sanjar bilan Sanobar 2025-yil yanvar oyining 10-sanasida Andijon tumani hokimining ruxsati bilan (Oila kodeksining 15-moddasiga muvofiq) uzrli sabab bo`lganligi uchun nikohdan o'tishdi. 2025-yil yanvarning 25-sanasida esa nikoh Andijon tumani fuqarolik ishlari bo'yicha sudi tomonidan yoshlarning naslnasabi to'g'ri tutashganligi sababli haqiqiy emas deb topildi.

Ma'lumki O'zbekistonda to'liq muomala layoqati 18 yosh qilib belgilab qo'yilgan. Lekin yuqoridagi holatda voyaga yetmaganlar 18 yoshdan oldin nikoh quradigan bo`lsa, to'liq

muomala layoqatiga ega bo'lishadi.

**SAVOL:** Nikoh haqiqiy emas deb topilgandan so'ng Sanjar va Sanobar to'liq muomala layoqatini saqlab qolishadimi?  
 A) ha saqlab qolishadi  
 B) ular to'liq muomala layoqatini yo'qotadilar, chunki nikoh haqiqiy emas deb topilgandan so'ng, sud tomonidan to'liq muomala

layoqati ham 18 yoshga to'lgunga qadar bekor qilinadi  
 C) to'liq muomala layoqati saqlab qolinishi ham mumkin, u 18 yoshga to'lguncha to'xtatib turilishi ham mumkin. Bu masalani hal qilish sudning vakolatiga kiradi  
 D) Sanjar muomala layoqatini saqlab qoladi, Sanobar esa yo'qotadi

## 29. Quyidagilarni bir-biriga to'g'ri moslashtiring.

Qonun bo'yicha vorislik:

1) Birinchi navbatdagi vorislik

2) Ikkinchi navbatdagi vorislik

3) Uchinchi navbatdagi vorislik

4) To'rtinchi navbatdagi vorislik

a) *tug'ishgan amaki, to'ga, amma vax ola*

b) *farzandlikka olingan bolalar*

c) *tug'ishgan aka-ukalar*

d) *boshqa qarindoshlar (yaqin qarindoshlar)*

A) 1c, 2b, 3a, 4d

B) 1b, 2c, 3a, 4d

C) 1b, 2a, 3d, 4c

D) 1b, 2d, 3c, 4a

30. Shaxzod 22 yoshda. Uning onasi Salomat aya esa qarib qolgan. U Shaxzoddan aliment olish bo'yicha sudga murojaat qilgan hamda sud Shaxzodga aliment to'lash bo'yicha hal qiluv qarori chiqarib bergen. Salomat aya oradan 4 oy o'tgach yana murojaat qilib, o'g'li pul to'lamayotganligini aytgan hamda unga nisbatan qonuniy chora ko'riliishini so'ragan. Vaziyatga huquqiy baho bering. Yuqoridagi vaziyatda Shaxzod jinoiy javobgarlikka tortiladimi?

(Asos: Jinoyat kodeksi 123-modda. 29. 01. 2025 holatiga ko'ra)

A) *Shaxzod jinoiy javobgarlikka tortiladi chunki u Jinoyat kodeksining 123-moddasida ko'rsatilgan jinoyatni sodir etgan*

B) *Shaxzod jinoiy javobgarlikka tortilmaydi, chunki u jinoiy javobgarlikka tortilishida oldin ma'muriy javobgarlikka tortilishi kerak*

C) *Shaxzod jinoiy javobgarlikka tortilmaydi, sababi u sudning hal qiluv qaroriga binoan undirilishi lozim bo'lgan mablag'ni jami bo'lib ikki oy mobaynida to'lamasa jinoiy javobgarlikka tortilishi mumkin. Yuqorida esa to'rt oy davomida to'lamagan*

D) *shaxs bir vaqtning o'zida ham jinoiy ham ma'muriy javobgarlikka tortiladi*

# HUQUQSHUNOSLIK DAN ONLAYN DARSLARGA QO'SHILISH UCHUN MUROJAAT QILING.

TEL: (91) 061-48-58

TG: @ustoz\_diyorbek\_otajonov